

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

“РЎЙХАТГА ОЛИНДИ”

№ ВМ – 343 – 5А340801 – 2.01

“1” ИЮЛЬ 2003 й.

“ТАСДИҚЛАНДИ”
Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус
таълим вазирлиги

“8” ИЮЛЬ 2003 й.

**INVESTITsIYaLAR AUDITI VA BAHOLASH
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 –“Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi
5A340707 – “Bank audit” magistratura mutaxassisligi uchun**

Tashkent – 2003

Tuzuvchilar: dots. Maxmudov A.N.
k. o'q. Boqieva X.A.
k. o'q. Roziqov J.
Taqrizchilar: dots. Ibragimov A.K.
dots. Xasanov B.A.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida investitsiya kompaniyalarini tashkil etish va ular faoliyatini yuritish zaruriyati yuzaga keldi.

"Investitsiya auditi va baholash" fanini o'qitish buxgalteriya hisobi, tahlil va audit mutaxassislarini tayyorlash talablari asosida olib boriladi. Fanni o'rganishdan pirovard maqsad bo'lg'usi mutaxassislarda investitsiya kompaniyalarida buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha mustahkam nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish hamda shu sohaga doir yangiliklar bilan yaqindan tanishtirishdir.

В условиях перехода на рыночную экономику появилась необходимость в организации и деятельности инвестиционных компаний.

Преподавание дисциплины **"Аудит и оценка инвестиций"** исходит из необходимости базовой подготовки специалистов в области бухгалтерского учёта, анализа и аудита. Конечной целью изучения дисциплины является формирование у будущих специалистов твердых теоретических знаний и практических навыков по бухгалтерскому учёту и аудиту в инвестиционных компаниях, а также ознакомление с соответствующими новостями данной сферы.

In conditions of transition toward market economy the necessity of investment companies organization and their activity has appeared. Teaching "Auditing and investment evaluation" issues from the necessity of personnel training for accounting, analysis and auditing majors. The final goal of studying is developing deep theoretical background and practical skills of future majors in accounting and investment companies auditing.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (25 aprel 2003 yil 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHl

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risida" Farmonida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tadbiiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgust 343-sonli Qaroriga muvofiq Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi. Mazkur standartlar asosida har bir o'qitilayotgan fanlar uchun dasturlar tayyorlash zaruriyati tug'ildi. "Investitsiya auditi va baholash" fani bo'yicha ushbu dastur qo'yilgan barcha talablar asosida tuzilgan bo'lib, "Buxgalteriya hisobi va audit" mutaxassisligi magistrantlari uchun mo'ljallangan.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasida izchil islohotlarning amalga oshirilishi, yangi mulk shakllari, shu jumladan, xususiy mulkning paydo bo'lishi sababli buxgalteriya hisobi tizimida ham tub o'zgarishlar qilish zaruriyati tug'ildi.

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotimizning sanoat ishlab chiqarishi bilan bir qatorda tub negizini tashkil etuvchi sohalarda ham o'z samarasini bermoqda. Xususan, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo va transport tarmoqlarida boshqaruvni samarali tashkil etish

uchun ulardan olinayotgan ma'lumotlarni ishonchliligini ta'minlashda investitsiyalar auditining vazifasi benihoya kattadir.

O'quv rejasiga muvofiq "Investitsiya audit va baholash" fanini o'qish "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar iqtisodiyotimizning turli jabhalaridagi, ya'ni qishloq xo'jaligi (agrar soha), qurilish, savdo va transport sohalaridagi investitsiyalar auditini tashkil qilish, uni yuritishda o'ziga xos tomonlarini va xususiyatlarini o'rganadilar. Ulardagi mablag'lar va mablag'larni tashkil etish manbalarini harakatini hujjatlashtirish tartibini, moliyaviy natijalarini shakllantirish va hisobotlarni tuzish bo'yicha amaldagi. Qonun va qarorlardan hamda me'yoriy hujjatlardan foydalanadi. Shu bilan birga buxgalter va auditorlar iqtisodiy vaziyatlarida tez va xatosiz mo'ljal olish, bozor iqtisodiyotining tendentsiyalarini tushunishlari zarur.

Magistrantlar o'quv dasturiga muvofiq asosiy yo'nalishda fan sifatida "Investitsiya audit va baholash" fanini chuqur o'rganadilar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida korxonalarda investitsiya auditini xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda tashkil qilish va yuritishni o'rganish asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Bu fanni o'rganishda "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asos qilib olinadi, shuningdek, fanni o'rganishda hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qaror va qonunlar, me'yoriy hujjatlar hamda iqtisodiy adabiyotlardan keng foydalanadi.

Fan bo'yicha magistrantlarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Mazkur yo'nalishda o'qiydigan magistrantlar "Investitsiya audit va baholash" fani bo'yicha chuqur bilim olishi va etuk mutaxassis bo'lib etishishlari uchun quyidagilarni mkammal bilishlari zarur:

- investitsiya kompaniyalari faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlarni;
- hisob va auditni tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini;
- ichki va tashqi foydalanuvchilarga taqdim etilishi zarur bo'lgan moliyaviy axborot tizimini;
- investitsiya kompaniyalari moliyaviy hisobotining ishonchliligi to'g'risidagi auditorlik xulosasini tuzib foydalanuvchilarga taqdim etish tartibini.
- "Buxgalteriya hisobi" va "Audit"ning tamoyillari va uslublari bo'yicha egallangan bilimlar tizimidan aniq amaliy vazifalarni bajarishda foydalanishni;
- investitsiya kompaniyalarining hisob siyosatini ishlab chiqish;
- axborot bazasidan auditorlar foydalanishi mumkin bo'lgan, samarali ichki auditorlik tizimini tashkil etishni;
- tashqi tizim, shuningdek ichki tizim korxonalariga taqdim etiladigan moliyaviy axborotlarning investitsiya va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi muhim o'rnini;
- investitsiya kompaniyalarida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning hisob va auditga ta'sir etuvchi o'ziga xos xususiyatlarini.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Fanni o'rganish qo'yidagi fanlar bo'yicha bilimga ega bo'lishni taqozo etadi:

- Fanlarning falsafiy masalalari;
- Ilmiy ijodiyot metodologiyasi;
- Amaliy chet tili;
- Axborot texnologiyalari;
- Ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti;
- Maxsus fanlarni o'qitishni metodikasi;
- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- Boshqaruv hisobi-2;
- Amaliy audit;
- Moliyaviy tahlil-2;
- Banklarda hisob va to'lov tizimi;
- Tashqi iqtisodiy faoliyat va valyuta operatsiyalari hisobi;
- Qimmatli qog'ozlar va ular bo'yicha operatsiyalar hisobi;
- Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti;
- Davlat moliyasini boshqarish;
- Hozirgi zamon davlat siyosatining dolzarb muammolari va boshqa fanlar zamonaviy usullarda kompyuterlardan foydalangan holda o'rganiladi.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

Magistrantlarga zamonaviy usulda "Investitsiya auditi va baholash" fanini o'rgatish va ularning bilimini baholashda quyidagilardan foydalaniladi:

- magistrantlarni avvaldan tarqatma o'quv materiallari bilan ta'minlash;
- tayanch iboralarni ishlab chiqishda ularning magistrantlar tomonidan mukammal o'zlashtirilishiga erishish;
- amaliy mashg'ulotlarda har bir tarmoq xususiyatlarini inobatga olgan holda ish o'yinlarini o'tkazish;
- iqtidorli magistrantlar bilan qo'shimcha darslar tashkil etish,
- magistrantlar bilimlarini o'zlari baholashlari va mustaqil ishlashlari uchun sharoit yaratib berish;
- magistrantlarga «1S:Buxgalteriya», «Turbo-Buxgalteriya» va boshqa dasturlar bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

"Investitsiya auditi va baholash" fani ikkinchi kursning uchinchi semestrida o'qitib, unda investitsiyalar auditi va ularni baholashga doir tushuncha hamda qoidalar o'rgatiladi. Fanni o'rganish ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada amalga oshiriladi. Auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun magistrantlarga uy vazifalari beriladi Ularning olgan bilimlarini nazorat qilishda test-sinov usullari qo'llaniladi. O'quv jarayoni reyting tizimi asosida tashkil qilinadi.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha soatlar hajmi

Oliy kasb ta'limining davlat standartlarida "Investitsiya auditi va baholash" faniga jami 60, shundan, ma'ruza - 20 amaliy mashg'ulot - 20, mustaqil ta'lim - 20 soat ajratilgan.

2. FAN DASTURI

Ma'ruza mashg'ulotlarining mazmuni

Investitsiyalar haqida tushuncha va investitsiyalar bozorining ishtirokchilari

O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari" to'g'risidagi Qonuni. "O'zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, Qonuni. Investitsiya tushunchasi. Uning mazmuni va mohiyati. *Investitsiyalar turlari va shakllari*. Investitsiyalar bozorining tarkibiy qismlari.

Investitsiya kompaniyalarining turlari va shakllari

Investitsiya kompaniyalari to'g'risida tushuncha. Moliyaviy vositachi turidagi investitsiya kompaniyasi. Investitsiyalarning mablag'larini jalb qilish, ularga aktsiya va obligatsiya kabi moliyaviy aktivlarni xarid qilish. Investitsiya kompaniyalarining turlari. Investitsiya trastlariga birlashish. *Investitsiya kompaniyalarining boshqaruvchilari*.

Birlashgan investitsiya trasti - direktorlar maslahat kengashi va portfel boshqaruvchisiga ega bo'lmagan, o'zi amal qilgan barcha vaqt davomida belgilangan miqdor va tarkibda qimmatli qog'ozlar portfeliga egalik qiluvchi investitsiya kompaniyasi.

Investitsiya kompaniyalarining boshqaruvchilari korporatsiya yoki trast shaklida tashkil etilgan bo'lsa, ular direktorlar maslahati kengashiga yoki aksionerlar saylab ishonch bildirilgan shaxsga ega bo'ladi.

Investitsiya kompaniyalarini tuzish va faoliyatiga ruxsat berish tartibi hamda ularni qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat turlari bo'yicha turkumlash

Investitsiya kompaniyalarini tuzish va faoliyatiga ruxsat berish tartibi:

- aktsiyalar emissiyasi;
- ustav kapitalini to'lash manbalari;
- *qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya kompaniyalarining ayrim faoliyat turlari tartibi va ularni tuzish;*
- brokerlik faoliyati, tuzish va faoliyatga ruxsat berish tartibi, brokerlik faoliyatida foydani shakllantirish manbalari;
- dilerlik faoliyati, tuzish va faoliyatga ruxsat berish tartibi, dilerlik faoliyatida foydani shakllantirish manbalari;
- jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan brokerlik operatsiyalari, tuzish va faoliyatga ruxsat berish tartibi, jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan brokerlik operatsiyalarida foydani shakllantirish manbalari;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha boshqaruv faoliyati, tuzish va faoliyatga ruxsat berish tartibi, qimmatli qog'ozlar bo'yicha boshqaruv faoliyatida foydani shakllantirish manbalari;
- kliring faoliyati, tuzish va faoliyatga ruxsat berish tartibi, kliring faoliyatidan olingan foyda;
- depozitli faoliyat, tuzish va faoliyatga ruxsat berish tartibi, depozitli faoliyatda foydani shakllantirish manbalari;
- qimmatli qog'ozlar egalari ro'yxatini yuritish bo'yicha faoliyatda foydani shakllantirish manbalari.

Investitsiya kompaniyalarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari

Ustav kapitali va investitsiya kompaniyalari tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar hisobi. Kompaniyalarning to'langan va to'lanmagan aksiyalari hisobi.

Investitsiya kompaniyalari tomonidan aksiyalarni sotishda yuzaga kelgan emissiya daromadlarini hisobga olish.

Investitsiya kompaniyasiga tegishli bo'lgan aksiyalari bo'yicha dividendlarni hisoblash va to'lash hisobi.

Qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish bo'yicha operatsiyalar hisobi.

Qisqa muddatli kuponsiz davlat obligatsiyalariga qo'yilmalar hisobi va ularni qayta baholash.

Investitsiya kompaniyalarida xarajatlarning yuzaga kelishi xususiyatlari va uning hisobi.

Qimmatli qog'ozlar qiymatiga qo'shiluvchi, investitsiya kompaniyalari xarajatlari tarkibining xususiyatlari:

- qimmatli qog'ozlarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar;
- qimmatli qog'ozlarni sotish bilan bog'liq xarajatlar;
- qisqa muddatli davlat obligatsiyalarini sotish bilan bog'liq xarajatlar;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish qiymati orasidagi salbiy farq;
- qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish va muomalaga chiqarish bo'yicha maslahat xarajati;
- dilerlik xizmati;
- brokerlik xizmati;
- muomalada yuzaga keluvchi boshqa xarajatlar.

Qimmatli qog'ozlarni baholash va inventarizatsiya qilish tartibi

Qimmatli qog'ozlarni baholash turlari: bozor qiymati, nominal qiymati, emissiya qiymati, balans qiymati, hisobdan chiqarish qiymati, kafolat qiymati, iste'mol qiymati.

Qimmatli qog'ozlar inventarizatsiyasi tushunchasi va uni o'tkazish tartibi.

Investitsiya kompaniyalarida aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarning buxgalteriya hisobi

Investitsiya kompaniyalarida aktsiya va obligatsiyalarning hisobi.

Investitsiya kompaniyalari hisobidan qimmatli qog'ozlarni sotib olish va ularning nominal qiymati orasidagi farqni aniqlab, bu farqlarni kompaniyaning foyda va zarar hisobvaraqlarida aks ettirish tartibi.

Investitsiya kompaniyalarining boshqa daromadlari, shuningdek, aktsiya va obligatsiyalardan olinadigan daromadlar hisobi.

Investitsiya kompaniyalari tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotish operatsiyalarining hisobi.

Qimmatli qog'ozlarni sotishda to'langan komission xarajatlari va vositachilarning manfaatlarini hisobga olish.

Sotiladigan qimmatli qog'ozlarning hisob qiymatini aniqlash usullari FIFO, LIFO va o'rtacha baholash usullari.

Investitsiya kompaniyalarida xarajatlar hisobi.

Investitsiya kompaniyalarining nomoddiy aktivlariga tegishli xarajatlarni hisobga olish.

Boshqaruv, depozitariy va audit kompaniyalarining xizmati uchun to'lov xarajatlarning hisobi.

Tannarxga kiruvchi xarajatlar tarkibining investitsiya kompaniyalarida o'ziga xos xususiyatlari.

Investitsiya kompaniyalarining moliyaviy natijalarini shakllantirish.

Qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan qo'yilmalarning qadrsizlanishini qoplovchi resurslarni tuzish

Kompaniyalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining tarkibi va tuzilishi.

Qimmatli qog'ozlar kotirovkasi haqida tushuncha. Qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan qo'yilmalarning qadrsizlanishini qoplovchi rezervlarni shakllantirish. Qimmatli qog'ozlar bozor qiymatining oshishi. Qimmatli qog'ozlarning balans qiymatini qayta baholash.

Investitsiya kompaniyalarida auditorlik tekshiruvining o'ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiy sub'ektlar moliyaviy qo'yilmalarining samaradorligi va maqsadga muvofiqligini tekshirish uslublari, moliyaviy qo'yilmalarning turlari, ularni tekshirishning o'ziga xos xususiyatlari. *Investitsiya kompaniyalari depozitariyalarda hisobni tashkil etish va olib borish qoidalariga rioya qilishining auditorlik tekshiruvi.* Investitsiya kompaniyasida xarajatlarning to'g'ri shakllantirilganligini, kompaniyani tashkil etish xarajatlari va boshqaruvchining xizmati uchun to'lovlarni belgilangan me'yorda investitsiya kompaniyasining faoliyat xarajatlariga olib borilganligini tekshirish. Kompaniyaning boshqaruvchisi va depozitariya bilan hisoblashishlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi va olib borilganligini tekshirish.

Depozitariyaning hisobotini tekshirish.

Boshqaruvchining hisobotini tekshirish.

Qimmatli qog'ozlar balans qiymatining to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish.

Qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati va kotirovka qilinadigan qimmatli qog'ozlarning belgilari.

Qimmatli qog'ozlarni diskka ko'chirish.

Qimmatli qog'ozlarning baholanishini tekshirish.

Investitsiya kompaniyasi moliya qo'yilmalarining qonuniyligini tekshirish.

Qimmatli qog'ozlarni sotish qiymati va uning buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish.

Kompaniya faoliyatida moliyaviy natijalarning shakllanishi va taqsimlanishini tekshirish.

Kompaniya aksionerlari bilan hisoblashishlarning to'g'ri, to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilganligini tekshirish.

Investitsiya kompaniyalarida ustav kapitalining shakllanishi va qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan ichki operatsiyalarning auditorlik tekshiruvi

Investitsiya kompaniyasi ustav kapitalining to'lanishini tekshirish.

Ta'ris hujjatlari va unga kompaniya faoliyatining haqiqatda mos kelishini tekshirish.

Depozitar shartnomalar, shuningdek qimmatli qog'ozlarni sotib olish shartnomalari bitimining bajarilishini tahlil qilish.

Qimmatli qog'ozlarni va obligatsiyalarni muomalaga chiqarish bo'yicha buxgalteriya muomalalarini to'g'riligi va ishonchliligiga rioya qilish.

Ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha buxgalteriya yozuvlarining to'g'ri tuzilganligi auditi.

Dastlabki hujjatlardagi yozuvlarning 8-sonli jurnalda "Ta'rischilar bilan hisoblashish" hisobvaraqlari va Bosh kitobdagi yozuvlarga mosligini taqqoslash.

Qimmatli qog'ozlar bilan aksionerlarga dividendlarni hisoblash va to'lash bo'yicha muomalalarni amalga oshirishning auditorlik tekshiruvi.

Qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish muomalalarini tekshirish.

Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va uni ro'yxatga olish auditi.

Qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish jarayonining umumiy talablarga rioya qilish auditi.

Qimmatli qog'ozlarning daromadlilikini baholash.

Aksionerlarga dividendlarning hisoblanishi va to'lanishini tekshirish.
Investitsiya kompaniyalari moliyaviy ahvolidan auditorlik tekshiruvi.
Kompaniyaning moliyaviy qo'yilmalari bo'yicha dividend, foiz, shuningdek boshqa ko'rinishdagi daromadlarini tekshirish.
Aktivlarni realizatsiya qilishdan olib, kompaniya faoliyati bilan bog'liq tegishli xarajatlarga kamaytirilgan moliyaviy natijalarni tekshirish.
Ijobiy va salbiy kurs farqlarining auditi.
Sotilgan va sotib olingan baho orasidagi farq ko'rinishida olingan daromadlari auditi.
Olingan va to'langan jarimalar auditi.

3. AMALIY MASHG'ULOTLARNING MAZMUNI

Investitsiyalar haqida tushuncha va investitsiyalar bozorining ishtirokchilari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya tushunchasi. Uning mazmuni va mohiyati. Investitsion faoliyatning huquqiy asoslari. Investitsiyalar turlari va shakllari. Real, moliyaviy va intellektual investitsiyalar.* Qisqa muddatli va uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar. Investitsiyalar bozorining tarkibiy qismlari.

Investitsiya kompaniyalari to'g'risida tushuncha, ularning turlari va shakllari

Investitsiya bozorining qatnashchilari to'g'risida tushuncha. Investitsiya kompaniyalarining investitsiyalar bozorida tutgan o'rni. Moliyaviy vositachi turidagi investitsiya kompaniyasi. Investitsiyalarning mablag'larini jalb qilish, ularga aktsiya va obligatsiya kabi moliyaviy aktivlarni xarid qilish.*

Investitsiya kompaniyalarining turlari. Investitsiya trastlariga birlashish. Investitsiya kompaniyalarining boshqaruvchilari.

Birlashgan investitsiya trasti-direktorlar maslahat kengashiga va portfel boshqaruvchisiga ega bo'lmagan, o'zi amal qilgan barcha vaqt davomida belgilangan miqdor va tarkibda qimmatli qog'ozlar portfeliga egalik qiluvchi investitsiya kompaniyasi.

Investitsiya kompaniyalarini tuzish va faoliyatiga ruxsat berish tartibi hamda ularni qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat turlari bo'yicha turkumlash

Investitsiya kompaniyalarini tuzish va faoliyatiga ruxsat berishning huquqiy asoslari. Xorijiy mamlakatlarda investitsiya kompaniyalarini tuzish va faoliyatiga ruxsat berish tajribasi.

*Investitsiya kompaniyalarini tuzish va faoliyatiga ruxsat berishning tartibi:

- aktsiyalar emissiyasi;
- ustav kapitalini to'lash manbalari;
- qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya kompaniyalarining ayrim faoliyat turlari tartibi va ularni tuzish;
- brokerlik faoliyati, tuzish va faoliyatiga ruxsat berish tartibi, brokerlik faoliyatida foydani shakllantirish manbalari;
- dilerlik faoliyati, tuzish va faoliyatga ruxsat berish tartibi, dilerlik faoliyatida foydani shakllantirish manbalari;
- jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan brokerlik operatsiyalari, tuzish va faoliyatga ruxsat berish tartibi, jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan brokerlik operatsiyalarida foydani shakllantirish manbalari;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha boshqaruv faoliyati, tuzish va faoliyatga ruxsat berish tartibi, qimmatli qog'ozlar bo'yicha boshqaruv faoliyatida foydani shakllantirish manbalari;
- kliring faoliyati, tuzish va faoliyatga ruxsat berish tartibi, kliring faoliyatidan olingan foyda;
- depozitli faoliyat, tuzish va faoliyatga ruxsat berish tartibi, depozitli faoliyatda foydani shakllantirish manbalari;
- qimmatli qog'ozlar egalari ro'yxatini yuritish bo'yicha faoliyatda foydani shakllantirish manbaalari.

Investitsiya kompaniyalarida buxgaltsriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari

Investitsiya kompaniyalarida buxgalteriya hisobini yuritishning ahamiyati va maqsadi. Investitsiya kompaniyalarida qo'llaniladigan hisob tamoyillari va usullari.

Investitsiya kompaniyalarida ustav kapitali hisobini tashmil qilish. Ustav kapitali va investitsiya kompaniyalari tomonidan muomalaga chiqarilgan aktsiyalar bo'yicha dividendlar hisobi. Kompaniyalarning to'langan va to'lanmagan aktsiyalarining hisobi.

Investitsiya kompaniyalari tomonidan aktsiyalarni sotishda yuzaga kelgan emissiya daromadlarini hisobga olish. Investitsiya kompaniyalari tomonidan o'z aktsiyalarini sotib olish bo'yicha operatsiyalar hisobi.* Investitsiya kompaniyasiga tegishli bo'lgan aktsiyalari bo'yicha dividendlarni hisoblash va to'lash hisobi.

Qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish bo'yicha operatsiyalar hisobi. Kompaniyaning aktsiyalarga moliyaviy qo'yilmalari va qarzli majburiyatlari hisobi. Qisqa muddatli kuponsiz davlat obligatsiyalariga qo'yilmalar hisobi va ularni qayta baholash.

Investitsiya kompaniyalarida xarajatlarning yuzaga kelishi xususiyatlari va uning hisobi

Investitsiya kompaniyalarida xarajatlar tarkibi. Ularning turlari. Investitsiya kompaniyalarida xarajatlarni yuzaga kelish xususiyatlari. Investitsiya kompaniyalarida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq xarajatlar hisobi.*

Qimmatli qog'ozlar qiymatiga qo'shiluvchi, investitsiya kompaniyalari xarajatlari tarkibining xususiyatlari:

- qimmatli qog'ozlarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar;
- qimmatli qog'ozlarni sotish bilan bog'liq xarajatlar;
- qisqa muddatli davlat obligatsiyalarini sotish bilan bog'liq xarajatlar;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish qiymati orasidagi salbiy farq;
- qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish va muomalaga chiqarish bo'yicha maslahat xarajati;
- dilerlik xizmati;
- brokerlik xizmati;
- muomalada yuzaga keluvchi boshqa xarajatlar.

Qimmatli qog'ozlarni baholash va inventarizatsiya qilish tartibi

Qimmatli qog'ozlarni baholash xususiyatlari. Qimmatli qog'ozlarni baholashda "Moliyaviy investitsiyalar hisobi" nomli 12-son BHMAning qo'llanilish doirasi. Qimmatli qog'ozlarni baholash turlari: bozor qiymati, nominal qiymati, emissiya qiymati, balans qiymati, hisobdan chiqarish qiymati, kafolat qiymati, iste'mol qiymati.*

Qimmatli qog'ozlar inventarizatsiya tushunchasi. Inventarizatsiyani o'tkazishning doimiy va ishchi komissiyasi to'g'risida tushuncha, uning vazifalari. Qimmatli qog'ozlarni inventarizatsiya qilish muddati va davri. Inventarizatsiya natijalarini umumlashtirish.

Investitsiya kompaniyalarida aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarning buxgalteriya hisobi

Investitsiya kompaniyalarida aktsiya va obligatsiyalarning hisobi.

Investitsiya kompaniyalari hisobidan qimmatli qog'ozlarni sotib olish va ularning nominal qiymati orasidagi farqni aniqlab, bu farqlarni kompaniyaning foyda va zarar schyotlarida aks ettirish tartibi.*

Investitsiya kompaniyalarining boshqa daromadlari, shuningdek, aktsiya va obligatsiyalardan olinadigan daromadlar hisobi.

Investitsiya kompaniyalari tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotish operatsiyalarining hisobi.

Qimmatli qog'ozlarni sotishda to'langan komission xarajatlari va vositachilarning manfaatlarini hisobga olish.

Sotiladigan qimmatli qog'ozlarning hisob qiymatini aniqlash usullari FIFO, LIFO va o'rtacha baholash usullari.

Investitsiya kompaniyalarida xarajatlar hisobi.

Investitsiya kompaniyalarining nomoddiy aktivlariga tegishli xarajatlarni hisobga olish.

Boshqaruv, depozitariya va audit kompaniyalarining xizmati uchun to'lov xarajatlarining hisobi.

Tannarxga kiruvchi xarajatlar tarkibining investitsiya kompaniyalarida o'ziga xos xususiyatlari.

Investitsiya kompaniyalarining moliyaviy natijalarini shakllantirish.

Qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan qo'yilmalarning qadrsizlanishini qoplovchi resurslarni tuzish

Kompaniyalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining tarkibi va tuzilishi. Qimmatli qog'ozlarni kotirovkasi haqida tushuncha.* Qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan qo'yilmalarning qadrsizlanishini qoplovchi rezervlarni shakllantirish. Qimmatli qog'ozlar bozor qiymatining oshishi Qimmatli qog'ozlarning balans qiymatini qayta baholash.

Investitsiya kompaniyalarida auditorlik tekshiruvining o'ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiy sub'ektlar moliyaviy qo'yilmalarining samaradorligi va maqsadga muvofiqligini tekshirish uslublari, moliyaviy qo'yilmalarning turlari, ularni tekshirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Investitsiya kompaniyalari depozitariyalarda hisobni tashkil etish va olib borish qoidalariga rioya qilishining auditorlik tekshiruvi. Investitsiya kompaniyasida xarajatlarning to'g'ri shakllantirilganligini, kompaniyani tashkil etish xarajatlari va boshqaruvchining xizmati uchun to'lovlarni belgilangan me'yorda investitsiya kompaniyasining faoliyat xarajatlariga olib borilganligini tekshirish.*

Kompaniyaning boshqaruvchisi va depozitariya bilan hisoblashlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi va olib borilganligini tekshirish.

Depozitariyaning hisobotini tekshirish*.

Boshqaruvchining hisobotini tekshirish*.

Qimmatli qog'ozlar balans qiymatining to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish.

Qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati va kotirovka qilinadigan qimmatli qog'ozlarning belgilari.

Qimmatli qog'ozlarni diskka ko'chirish.

Qimmatli qog'ozlarning baholanishini tekshirish.

Investitsiya kompaniyasi moliya qo'yilmalarining qonuniyligini tekshirish*.

Qimmatli qog'ozlarni sotish qiymati va uning buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish.

Kompaniya faoliyatida- moliyaviy natijalarning shakllanishi va taqsimlanishini tekshirish.

Kompaniya aksionerlari bilan hisoblashlarning to'g'ri, to'liq, va o'z vaqtida amalga oshirilganligini tekshirish.

Investitsiya kompaniyalarida ustav kapitalini shakllanishi va qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigay ichki operatsiyalarning auditorlik tekshiruvi.

Investitsiya kompaniyasi ustav kapitalining to'lanishini tekshirish*.

Ta'sis hujjatlari va unga kompaniya faoliyatini haqiqatda mos kelishini tekshirish.

Depozitar shartnomalar*, shuningdek qimmatli qog'ozlarni sotib olish shartnomalari bitimining bajarilishini tahlil qilish.

Qimmatli qog'ozlarni va obligatsiyalarni muomalaga chiqarish bo'yicha buxgalteriya muomilalarini to'g'riligini va ishonchliligiga rioya qilish.

Ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha buxgalteriya yozuvlarining to'g'ri tuzilganligi auditi.

Dastlabki hujjatlardagi yozuvlarning 8-sonli jurnalda "Ta'sischilar bilan hisoblashlar" hisobvaraqlari va Bosh kitobdagi yozuvlarga mosligini taqqoslash.

Qimmatli qog'ozlar bilan, aksionerlarga dividendlarni hisoblash va to'lash bo'yicha muomalalarni amalga oshirishning auditorlik tekshiruvi.

Kompaniya qimmatli qog'ozlar bozoridagi muomalalarga qatnashishi.

Qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish muomalalarini tekshirish*.

Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va uni ro'yxatga olishning auditi.

Qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish jarayoni umumiy talablariga rioya qilishning auditi.

Qimmatli qog'ozlarning daromadligini baholash.

Aksionerlarga dividendlarning hisoblanishi va to'lanishini tekshirish*.

Investitsiya kompaniyalari moliyaviy ahvolidan auditorlik tekshiruvi.

Kompaniyaning moliyaviy qo'yilmalari bo'yicha dividend va foiz ko'rinishida, shuningdek boshqa ko'rinishdagi daromadlarini tekshirish.

Aktivlarni realizatsiya qilishdan olinib, kompaniya faoliyati bilan bog'liq tegishli xarajatlarga kamaytirilgan moliyaviy natijalarni tekshirish*.

Ijobiy va salbiy kurs farqlarining auditi.

Sotilgan va sotib olingan baho orasidagi farq ko'rinishida olingan daromadlarining auditi*.

Olingan va to'langan jarimalar auditi.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA NAMUNAVIY KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

Investitsiya auditi va baholash hisobining xususiyatlari fanini o'rganuvchi magistrantlar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun mustaqil tizimga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida o'quv rejasiga muvofiq o'rganadilar. Mustaqil ta'lim olishdan nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida mavzular bo'yicha auditoriyada va uyida referatlar yozadilar, mavzular bo'yicha testlarni echadilar. Mustaqil ta'lim olish uchun magistrantlarga kafedra o'qituvchilari tomonidan mavzular beriladi. Shuningdek, buxgalteriya hisobini o'rganish bilan birga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning materiallaridan foydalanib, malakaviy ish yoziladi.

"Investitsiya auditi va baholash" fanini o'rganishda magistrantlar amaliy yordam tariqasida ushbu fan bo'yicha qo'llaniladigan turli shakl, chizmalar, slaydlar bilan ta'minlanadi.

Magistrantlar «Investitsiya auditi va baholash» fanini o'rganishda axborot vositalaridan, ya'ni Internet tizimidan ham foydalanadi. Unda quyidagi sayt va pochta mavjud:

1. <http://www.apb.org.uk> (Auditing Practices Board)
2. <http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office)
3. <http://www.iaa.org.uk> (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom)
4. <http://www.iasc.org.uk> (International Accounting Standards Committee)
5. <http://www.aispa.org/index.htm> (American Institute of Certified Public Accountants)
6. www.gov.uz.fia - chet el investitsiyalarining agentligi
7. www.uzse.com Uzbekistan fond birjasi.
8. www.alm.uz - fond birjasi axborot tahlil markazi.
10. www.cer.uz - iqtisodiy izlanishlar markazi.
11. www.referat.uz - referatlar to'plami.

Shuningdek, magistrantlar respublikamizda chop etilgan gazeta va jurnallardan foydalanadilar.

4. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

Magistrantlarning fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YaB);

JB hamda OB turlari va belgilangan ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatlarning 70%) o'qitilayotgan fanga mas'ul bo'lgan kafedraning qarori bilan mavzu murakkabligi va zaruriyligiga qarab, quyidagi mezonlar bo'yicha taqsimlanadi:

- magistrantning o'quv jarayonida davomati va faolligi;
- amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirish;
- dolzarb mavzularda referatlar yozish;
- ilmiy tezislar (maqolalar) tayyorlash, ilmiy uslubiy anjumanlarda chiqishlar qilish;
- ilmiy adabiyotga va izlanish natijalariga annotatsiyalar yozish;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarish;
- xorijiy tillarda chop etilgan adabiyotlarni tarjima qilish;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlash;

- fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo'lim yoki qism bo'yicha magistrantlarning, nazariy bilimlarini baholash.

O'quv jarayoni davomida talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 60 ga teng bo'lib, shundan joriy baholashga 24, oraliq baholashga 18 va yakuniy baholashga 18 ball ajratilgan. Yozma ish variantlari tuzilib, u o'quv dasturiga to'liq mos kelishi ta'minlanadi va reyting tizimi asosida baholanadi.

Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "yozma ish" natijalari quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 foizdan 100 foizgacha - «a'lo»;
- 71 foizdan 85 foizgacha - «yaxshi»;
- 55 foizdan 70 foizgacha - «qoniqarli».

6. ADABIYO TLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi Qonuni 1993 yil 2 sentyabr, o'zgartirish va qo'shimchalar 1994 yil 23-sentyabr, 1996 yil 22 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari va chet el investorlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 1994 yil 5 may.
3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, 1996 y. 30 avgust. // Xalq so'zi.
4. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2000 yil 26 may. Yangi tahrir.
5. Karimov. I. A. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -T.: O'zbekiston, 1995.
6. Karimov I.A. Vazirlar Mahkamasining 2000 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2001 yilda iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisdagi ma'ruzasi. // Vatanparvar, 2001 yil 20 fevral.
7. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1995.
8. Belix L.P. Finansoviy analiz v otsenke investitsionnoy privilekatelnosti predpriyatiy. // Buxgalterskiy uchyot, № 10, 1999.
9. Barishnikov N.P. Organizatsiya i metodika provedenie obshego audita. Moskva - 1998.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Emelyanov A.M. Obshchiy audit. -M.: Finansi i statistika, 1997.
2. Itkin. Yu.M., Sotvoldiev A.S. Buxgalterskiy uchyot v usloviyax rinochnoy ekonomiki Uzbekistana. -T.: 1997. 1-chast.
3. Itkin. Yu.M., Sotvoldiev A.S. Buxgalterskiy uchyot v usloviyax rinochnoy ekonomiki Uzbekistana. -T.: 1997. 2-chast.
4. Kovalev V.V Finansoviy analiz: upravlenie kapitalom, vibor investitsiy. Analiz otchyotnosti. 2-e izdanie, pererab., dop. -M.: Finansi i statistika, 1998.
5. Odolskiy V.I. Polyak K. i dr. Audit. -M.: YuNITI, 1997.
6. Savenkov A. Tsennie bumagi v Uzbekistane. -T.: 1998.